

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (EHNAT) ning joriy etilishi munosabati bilan iste'molchilarning xisobga olish priborlaridagi ko'rsatkichlar avtomatlashtirilgan tizimning texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki iste'molchining buyurtmasi bo'yicha yozib olinadi.

“Ta'minotchi korxonada” “Iste'molchi”ning shaxsiy xisob-raqam va xisobga olish priborlarining xolati xaqida batafsil ma'lumotlar doimiy asosda shakllantirilishi va idoralararo elektron xamkorlik qilish tizimiga real vaqt rejimida yuborilishini ta'minlaydi.

### **3.12. Shartnomada hisob-kitob davri uchun ko'rsatilgan energiya miqdordan**

**5 foizdan ortiq miqdorda energiya iste'mol qilganda, “Iste'molchi”dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiq iste'mol qilingan elektr energiyasi ja'mi hajmi uchun belgilangan tarifning 1,15 baravari miqdorida to'lov undiriladi.**

“Iste'molchi”ning elektr energiyasi haqini to'lash, reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun tarifga ustamalar, shuningdek, noqonuniy foydalanilgan elektr energiyasi qayta hisob-kitobi va penya bo'yicha qarzi bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi (oldindan haq to'lash) sifatida hisobga olinmaydi.

“Iste'molchi” shartnomada ko'rsatilgan elektr energiyasi xajmini to'liq iste'mol qilmagan taqdirda, avans tariqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va elektr energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

Hisob-kitob oyidan keyingi kalendar oy tugagach qarzdorlik to'lov muddati o'tgan deb hisoblanadi va to'lov muddati o'tgan har bir kun uchun “Iste'molchi”ga to'lov muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, elektr energiyasi maxsus tartibda yetkazib beriladigan korxonalar uchun esa 0,2 foiz miqdorida penya hisoblab yoziladi. Bunda penyaning umumiy miqdori, muddati o'tgan to'lovning 50 foizidan oshmasligi lozim.

3.13. “Iste'molchi” va “Ta'minotchi korxonada” har oyda hisob-kitob davri tamom bo'lgandan keyin besh kun mobaynida o'zaro hisob-kitoblarning taqqoslash dalolatnomasini tuzadi.

### **3.14. “Iste'molchi”ni quyidagi hollarda elektr tarmoqlaridan uziladi:**

shartnomaviy majburiyatlari bajarilmaganda;

hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi oqibatida foydalanilgan elektr energiyasi uchun qarzdorlik mavjud bo'lganda;

Ta'minotchi korxonada talabnomalari bajarilmaganda, shu jumladan, uning tegishli vakillariga hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini olishga yo'l qo'yilmaganda;

hisobga olish priborlarini qasddan buzganda, ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga tashqaridan aralashish hatti-harakatlar amalga oshirilganda;